

OXUNJON SAFAROV

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OHY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

OXUNJON SAFAROV

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI

*O‘zbekiston Respublikasi Ohy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan universitetlar va pedagogika institutlari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

«Musiq» nashriyoti
Toshkent
2010

Darslikda o'zbek folklorshunosligining XX asrdagi ilmiy yutuqlari milliy g'oya konsepsiyasiga muvofiqlashtirilgan holda bo'laak filologlarga tushunarli qilib, sodda va ravon uslubda bayon etildi. Har bir mavzu oxirida talabalarning mustaqil o'qishiga mo'ljallangan ilmiy va badiiy adabiyotlarning eng so'nggi nashrlari berildi.

Darslikda mavzular mohiyatini aks ettiruvchi jadvallar ham berilgan, bu materiallarni ko'rish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni kengaytiradi.

Darslik bo'laak filolog bakalavrlar, magistrantlar, aspirantlar va folklor bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

M a s' u l m u h a r r i r

O'ZRA MIRZAYEV,

*O'ZRA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot
instituti direktori, filologiya fanlari doktori,
professor, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Respublika
davlat mukofoti sohibi.*

T a q r i z c h i l a r :

M.JO'RAYEV

*O'ZRA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot
instituti Folklor bo'limi mudiri, filologiya
fanlari doktori, professor.*

D.S.O'RAYEVA

*Filologiya fanlari doktori, Buxoro davlat universiteti
O'zbek adabiyoti kafedrasida professori.*

M.MAHMUDOV, B.ADIZOV,

*pedagogika fanlari doktorlari, Buxoro davlat
universiteti Pedagogika kafedrasida professorlari.*



ISBN 978-9943-307-52-0

© «Musiq» nashriyoti, 2010

© Oxunjon Safarov, 2010

MUALLIFDAN

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Buxoro davlat universiteti rektorati va muallif tomonidan 2000-yilning 6-dekabrida tuzilgan uch tomonlama 35- raqamli shartnomaga muvofiq yozildi. Undagi materiallar o'zbek va jahon folklorshunosligidagi eng so'nggi ilmiy-nazariy qarashlarga asoslangan, yaxlit holda tanlanib, tizimlashtirildi. Bu, ayniqsa, adabiy turlar tasnifotining yangicha talqinida, ilgari kichik tur deb kelingan maqol, topishmoq, tabu, irim va yumuq iboralardan iborat xalq atorizmi hodisalarining alohida adabiy tur, ya'ni paremik tur tarzida qurultirilganida, qolaversa, lofning xalq nasri tarkibida emas, balki xalq dramatik janri tarzida qaralganligida yorqin ko'zga tashlanadi.

Darslikda mavzular bayonidan keyin talabalar mustaqil o'qishi shart sanalgan shu mavzuga oid ilmiy-badiiy folklor asarlari ro'yxati hamda kursga oid har bir mavzu mohiyatini ixcham ifoda etuvchi jadvallar berilgan.

Darslikni yozishda o'zbek folklorshunosligida ilgari yaratilgan «O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi» qo'llanmasi (1980) va darsligi (1990), akademik litseylarga mo'ljallangan «Xalq og'zaki poetik ijodi» (2002) darsligi va majmuasi, rus folklorshunoslari V.P.Anikinning «Russkoe ustnoe narodnoe tvorchestvo» (2001), T.V.Zuyeva, B.P.Kirdanlarning «Russkiy folklor» (2002) kabi darsliklari hamda shu kurs bo'yicha Buxoro davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti talabalariga salkam 40 yildan beri o'qib kelayotgan ma'ruzalarimiz davomida to'plagan tajribalarimizdan foydalandik.

Shuningdek, 1990-yilda chop etilgan darslikda o'zimiz yozgan mavzular matnini qayta ko'rib, ayrim tuzatishlar va to'ldirishlar bilan darslikni yanada takomillashtirdik. Ayni choqda o'sha darslikda T.Mirzayev yozgan topishmoqlar va doston mavzularini muallif roziligi

bilan bu darslikda ham saqlab qoldik. Biroq T.Mirzayev dostonga bag'ishlangan mavzuni tamoman qayta ishlab, birmuncha to'ldirib, mukammallashtirib berdi. Motam marosini folklori mavzusini yozishda esa, shu sohani maxsus o'rgangan shogirdimiz, professor D.O'rayeva bergan materiallardan foydalandik. Bunday iltifotlari uchun har ikkalalariga ham minnatdorchilik bildirishga burchdormiz.

Darslikning yaratilishida bergan qimmatli maslahatlari uchun taniqli folklorshunoslar O'zbekiston Respublikasi fan arbobi T.M.Mirzayevga, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo'limi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor M.Jo'rayevga, Buxoro davlat universiteti O'zbek adabiyoti kafedrasida jamoasiga, shaxsan iste'dodli folklorshunos olimi, filologiya fanlari doktori D.S.O'rayevaga, O'zbekiston Milliy universiteti professori H.Boltaboyev va dotsenti O.Madayevga, shuningdek, Antik dunyo tarixi xalqaro akademiyasining akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor M.H.Mahmudov hamda Buxoro Davlat universiteti pedagogika kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori B.R.Adizovlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Xalqimizda har bir to'kislikning bir noqisligi bor, degan naql bor. Binobarin, biz ham bu darsligimiz noqisliklardan butkul xoli, degan da'vodan yiroqmiz. Shu sababli uni takomillashtirish va kam-u ko'stlarini bartaraf etish maqsadida bildiriladigan har qanday e'tiborli takliflaringizni oldindan minnatdorlik bildirgan holda, mamnuniyat bilan qabul qilamiz.